

Zakovat. May oyining 1-tur bahslari o'tkazildi


O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Yoshlar bilan ishlash, ma'naviy va ma'rifat bo'limi hamda Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tomonidan "Zakovat" intellektual o'yinining may oyidagi 1-tur bellashuvi o'tkazildi.

Unda to'rtta fakultetdan to'rtta jamoa ishtirok etdi.

Amaldagi g'olib – Kino, televideniye va radio san'ati fakulteti hamon yetakchilikni hech kimga bermayapti.















Turkiya oliy ta'lim muassasasi bilan keng qamrovli hamkorlik

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamda Turkiyaning Kojaeli universiteti rahbariyati uchrashdi.

Tomonlar ta'lim va fan sohasida do'stona munosabat va hamkorlikni mustahkamlash borasida kelishuvga erishdi.



Hamkorlik doirasida o'qituvchi va tadqiqotchilar almashinuvi, qo'shma ilmiy loyihalar, jumladan, konferetsiya, uchrashuv, seminarlar tashkil etish kabi vazifalar bajarilishi belgilandi.

Shuningdek, o'quv, ilmiy va uslubiy adabiyotlar almashinuvini yo'lga qo'yish, birgalikda tadbirlar tashkil etish, ta'lim va ilmiy-tadqiqot bo'yicha tajriba almashish masalalari muhokama qilindi.



Muzokara so'ngida ikki oliy ta'lim muassasasi o'rtasida yuqorida ta'kidlangan vazifalarni o'z ichiga olgan hamkorlik memorandumi imzolandi.

Baxshichilik festivaliga tayyorgarlik avjida

Xabaringiz bor, 6-8-may kunlari Sirdaryo viloyatining Guliston shahrida xalqaro baxshichilik san'ati festivali o'tkaziladi.

Ayni vaqtda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori v.b. Eldor Shermanov Sirdaryo viloyatiga tashrif buyurib, mazkur festivalga tayyorgarlik jarayoni bilan

bevosita tanishmoqda.

Eslatib o'tamiz, festivalga 1500 nafardan ortiq ijodkor jalb etilgan. Shu bilan birga, 40 dan ortiq xorijiy davlat va xalqaro tashkilotdan baxshichilik san'atiga doir 30 nafardan ziyod musiqa ijrochi ishtirok etadi.

Anjuman yakunida ko'rik-tanlov g'oliblari va sovrindorlarini tantanali taqdirlash marosimi hamda gala-konsert namoyish etiladi.

Xalqaro festival g'olib ishtirokchilarini rag'batlantirish maqsadida esa bu gal ham AQSH dollarida pul mukofotlari ajratilgan bo'lib, Gran pri sohibiga 7000 AQSH dollari, 2 ta yo'nalishdagi 1-o'rin sohibi uchun 10.000 AQSH dollari, 3-o'rin egalariga 3.500 AQSH dollari ajratilgan.

Shuningdek, eng yaxshi selfi, fleshmob kabi yo'nalishlaridagi xalqaro festivalning eng yaxshi targ'ibotchisi bo'lgan matbuot xodimlari ham pul mukofoti bilan taqdirlanishi kutilmoqda.



BAKHSI
INTERNATIONAL
ART FESTIVAL
GULISTAN 2023











Ilmiy jurnallarda maqola chop etish bo'yicha trening

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti axborot-resurs markazida Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi tomonidan Ilmiy jurnallarda maqola chop etish bo'yicha trening bo'lib o'tdi.

Mazkur seminarda soha mutaxassislari, respublika tanlovlari g'olib va sovrindorlari hamda ilmiy maqolalari ko'pgina xorijiy jurnallarda chop etilgan iqtidorli talabalar tomonidan ilmiy maqola tasnifi, yozish uslubi, xalqaro elektron

jurnallardan to'g'ri foydalanish, yuqori reytingga ega jurnallarda maqola chop etish borasidagi fikrlari bilan o'rtoqlashdi.

Trening davomida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.











Yoshlarning xorijiy bilimlarni o'zlashtirishida ko'maklashish asosiy vazifalardan biri sanaladi

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rahbariyati oliygohning magistratura mutaxassisligida tahsil olayotgan talabalar bilan uchrashdi.

Institut rektori v.b. Eldor Shermanov bo'lajak magistrnlarning ilmiy ishlarga chuqur yondashishi, bu borada rahbariyat

tomonidan barcha shart-sharoit yaratilishi ta'kidlandi.

“Magistratura talabasi o'qishni boshlaganidayoq ilmiy ishini belgilab olishi hamda unga jiddiy yondashib, kelgusida soha rivojiga hissa qo'sha oladigan bilim qoldirishi lozim. Oliygohimizda ko'plab magistratura mutaxassisligini tugatgan talabalar faoliyat olib bormoqda. Chunki, yoshlar har qanday dargohga yangi nafas, yangi bilim va ko'nikmalarni olib kiradi. Bu esa rivojlanish uchun xizmat qiladi”, dedi institut rektori v.b. Eldor Shermanov.

Shu bilan birga, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Sobir Jumayev tomonidan talabalarning chet tili darajasini oshirish masalasi ilgari surildi. Bu borada institutda xorijiy til kurslari tashkil etilishi qayd etildi.

Qolaversa, yangilanayotgan Konstitutsiya bo'yicha o'tkaziladigan referendum mohiyati tushuntirib o'tildi.

Davra suhbatı tarzıda o'tgan uchrashuvda talabalarning taklif va muammolari tinglandi hamda ularga yechim topish borasida vazifalar belgilab olindi.

















**Qabul komissiyasi telefon
raqamlari 2**